

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI”AJ

Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti

Kafedra: “Iqtisodiyot va menejment”

REFERAT

**Мавзу: Jaxon xo'jaligida iqtisodiy xavfsizlik
faoliyati va muammolari**

Bajardi:

Majidov B. M.

Tekshirdi:

Karimova Z. A.

Toshkent-2016

Mavzu: Jaxon xo'jaligida iqtisodiy xavfsizlik faoliyati va muammolari

Reja:

Kirish

- 1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi va turlari.**
- 2. Iqtisodiy xavfsizlikni guruhlarga ajratish**
- 3. Jahon xo'jaligidagi xatarlar mexanizmi va turlari.**

Xulosa

Test

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mustaqil O`zbekiston o`tgan yillar mobaynida asrlarga tatigulik tarixiy yo`lni bosib o`tdi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar endilikda ortga qaytmaydigan jarayonga aylandi. Bu, eng avvalo istiqlolimiz, uni mustahkamlash, shuningdek, xavfsizlik va tinchlik uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning natijasidir. Darhaqiqat xavfsizlik va tinchlikka erishmasdan turib, biror ezgu maqsadga erishib bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Xavfsizlik va tenglik uchun kurashmoq kerak” nomli kitobi bilan tanishganda ko`ngildan shu fiklar o`tadi. Kitobning qimmatli jihati shundaki, mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlash, terrorchilik balosiga qarshi kurashda juda katta e`tabor bergan. Bugungi kunda sayyoramizda tinchlik barqarorlikka jiddiy xavf solib turgan xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda birlashtirishni, harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan taklif, fikr va mulohazalar milliy va iqtisodiy xavfsizlik dolzarb masala ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, o`tgan asrning keyingi yillaridan boshlab iqtisodiy xavfsizlik muammosi o`ta keskinlashdi, “iqtisodiy xavsizlik” tushunchasi keng qamrovli, murakkab tushuncha ekanligi oydinlasha boshladi. An`anaviy yondashish va usullar orqali iqtisodiy xavfsizlikni to`liq tavsiflab bo`lmaydi.

Iqtisodiy xomashyoga asoslangan mamlakatlarning mahsulotlari, shuningdek yetakchi mamlakatlarning jahon bozoridagi valyuta kurslari tebranishlari bilan bog`liq xavflar mamlakatlar iqtisodiy o`shishiga salbiy ta`sirni, ularning inqirozi xavfini kuchaytiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'lamini ham, darajasi ham xilma-xil. Shuning uchun ham ko'pgina mamlakatlar oily organlari doirasida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi har xil talqin etiladi. Shuningdek iqtisodiy xavfsizlikning ustuvorlik va unga erishishni ta'minlovchi aniq konsepsiya va strategiyasi ham yo'q.

Bugun bu sohada yuksak professionalizm va intellektual salohiyatga asoslangan iqtisodiy xavfsizlikni keng qo'llash, fan-texnikaning ilg'or yutuqlarini faol joriy etish eng zarur masala bo'lib qolmoqda.

“iqtisodiy xavfsizlikni” maqsadi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mohiyati
- Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasidagi tajribalarini hisobga olgan holda tahlil
- O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiy manfaatlarini aniqlash va tavsiflash;
- respublika ijtimoi-iqtisodiy rivojlanishiga iqtisodiy xavfsizlikning ichki va tashqi omillari ta'siri darajasiga tahlili;
- iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy holatining tahlili
- O'zbekistonda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash belgilash

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi va turlari.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi o`zbek iqtisodiyoti boshqaruv organlari leksikasida yangi. Xorijiy mamlakatlar boshqaruv tuzumlari faoliyati amaliyoti uchun esa avvaldan qo`llanib kelinayotgan tushuncha bo`lib, juda keng sharhlanadi. Chunonchi, iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta`min etuvchi asosiy bo`g`inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta`minlash yo`llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig`indisidir. Konseptual ko`rinishda u davlat iqtisodiy potensial holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot davlat xavfsizligini ta`minlashi mumkin emas. Bu ijtimoiy nizolarga to`la jamiyatda, ayniqsa yaqqolroq namoyon bo`ladi. Chunki “iqtisodiy xavfsizlik” va “ijtimoiy xavfsizlik” o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, bir-birini to`ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta`minlovchi muhitga o`xshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo`lishi mumkin emas. Barqarorlik-bu, jamiyatning favqulotda holatlarda hamda o`z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatini tiklash imkoniyatidir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi ilk bor resurslarni chegaralanganligi to`g`risidagi masala keskinlashgan bir paytda yuzaga keladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining ta`riflari ko`p. Ularni umumlashtirgan holda oladigan bo`lsak, iqtisodiy xavfsizlik – bu, davlat iqtisodiy tizimiga ta`sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko`p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig`indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflari va yo`qotishlariga qarshi turish qobiliyatidir. Demak, tashqi iqtisodiy aloqalar murosasiz

tus olayotgan vaziyatda, iqtisodiy xavfsizlikka dahl qiluvchi mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan omil va sharoitlar kiradi. Ular ikkiga - tashqi va ichki xavflar bo'linadi.

Tashqi xavflarga asosan quyidagilar kiradi:

- uning xorijiy bozorlarga chiqishiga, xalqaro moliya iqtisodiy va savdo tartiblash mexanizmlarida ishtirokiga, yangi texnologiyalarga erishishiga;
- global Jahon iqtisodiy tizimiga (BTO) va Markaziy Osiyo regionini chegarasida iqtisodiy integratsiyaga to'sqinlik qilish;
- tashqi transport, axborot va ilmiy texnika kommunikatsiyalari tizimining rivojlanmaganligi va boshqalar.

Mamlakatning ichki xavflari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotdagi totalitar tuzumdan qolgan chuqur qayta ishlamaslik, soha va hududiy disproportsiyalar;
- yer-suv va ba'zi turdagi muhim mineral xomashyo resurslarining cheklanganligi;
- iqtisodiyotga, ayniqsa, ba'zi regionlarga, yuqori demografik bosim;
- ko'p sohalaridagi ishlab chiqarishning yuqori chiqimga va raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot chiqarishga olib keladigan past texnik darajasi;
- iqtisodiyot sohasida yangi huquqiy asos shakllanishi va uni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish ishlariga oxiriga yetkazilmaganligi;
- boshqaruvga yondashishning ma'muriy boshqaruv tizimiga xos bo'lgan usullari va iqtisodiy jihatdan eskicha fikr yuritish retsidivlarining saqlanib qolishi, ba'zi boshqaruv bo'g'inlarida xo'jalik faoliyatining bozor prinsipi va mexanizmlarini yetarli darajada tushunmaslik;

- iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalarida bozor o'zgarishlari darajasi va dinamikasi, shuningdek, shahar va qishloq orasidagi tafovutlar;

- bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi ;

- moliya, bank-kerdit va valyuta tizimlarida pul aylanishining beqarorlashish xavfi; iqtisodiy sohada jinoyatning tarqalishi , xo'jalik subyektlari huquqiy himoya mehanizmining mukammal emasligi va boshqalar.

Iqtisodiy xavfsizlikning tekshirish predmeti davlatning tashkil etilgan va muvofiqlashgan iqtisodiy munosabatlaryig`indisi sifatidagi iqtisodiy tizimidir. Davlat faoliyatining iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi vazifalari quyidagilar:

- kelgusida ijtimoiy –iqtisodiy tizim va davlatni beqarorlashtiruvchi qisqa va uzoq muddatli omillar monitoringi va tavsifi;

- bu omillarning zararli ta'sirini yo'qotadigan yoki yumshatadigan iqtisodiy siyosat va institutsional o'zgarishlarni iqtisodiy islohotlarning yagona dasturi chegarasida shakllantirish.

Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari- bu, xavfsizlik siyosatining asosiy mazmuni va stratigik maqsadini tashkil etuvchi, real mavjud bo'lgan hodisa, jarayon va munosabatlaridir. Iqtisodiy xavfsizlik inshootlariga shaxs, jamiyat, davlat ham kiradi. Iqtisodiy xavfsizlik muammolarini o'z inshootlari- mamlakaning iqtisodiy tizimi bo'lgani kabi, boshqa mumkin bo'lgan faoliyat sohaları bilan o'zaro ta'siri kesishishidagi inshootlari: harbiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, axborot va hokazo inshootlari ham bor. Iqtisodiy xavfsizlikning muhim me'yorlari shaxs, guruh, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilish, ularning xavfsizlik ta'minlanishiga o'zaro javobgarligidir.

Iqtisodiy xavfsizlik subyektlariga funksional va soha vazirlik va boshqarmalari, soliq va bojxona xizmatlari, banklar, birjalar,

jamg`armalar va sug`urta komponiyalari, mos qo`mtalari, shuningdek, mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko`rsatuvchilar va sotuvchilar, iste`molchilar jamiyatlari kiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning o`ziga xos ahamiyatini hisobga olmaslik mamlakat iqtisodiy rivojlanishida yomon oqibatlariga olib keladi. Bunga 2011 yil 11 sentabrda Nyu York, Vashingtonda uyushtirilgan terroristik aktlar misol bo`la oladi. Terroristik akt natijalari AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarda retsessiy sur`atlari o`shida namoyon bo`ladi. Demak, xavfsizlik masalalari iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan tor doirada bog`liq. Shunday qilib yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish sohasidagi muammolar havo transporti, sug`urta sohasi turizm tomonidan ko`rsatilayotgan xizmatlar qisqartirilishi bilan to`ldirilgan edi. Natijada ish joylarini yo`qotishi, kompaniyalar, aholi daromadining pasayishi, jahon ichki bozorlarida tovar xizmatlarning narxi ko`tarilishi sodir bo`ldi.

Rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanish muammolari rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Xalqaro bank ma`lumotiga ko`ra AQShdagi terroristik aktlar va ularga javoban Amerikaning harbiy harakatlari jahonning boshqa regionlaridagi terroristik harakatlar natijasida 10 mln. ga yaqin aholi past darajali hayotga mahkum etilgan; ochlik va oziq-ovqatdan mahrumlik oqibatida 6 yoshgacha bo`lgan 20 mingdan 40 minggacha bola o`lgan; o`shish sur`atlari sekinlashgan.

Iqtisodiy xavfsizlikni guruhlarga ajratish

Milliy manfaatlar va maqsadlar kontekstida milliy va iqtisodiy xavfsizlikni sinflarga ajratish mumkin:

1. Siyosiy xavfsizlik shaxs ustuvorligiga asoslangan turli ijtimoiy guruhlar manfaatlari balansini ta'minlovchi siyosiy tuzum shakllantirilishi bilan erishiladigan, jamiyatning siyosiy barqarorligi va davlatlararo munosabatlar tizimi chegarasida barqaror siyosiy mustaqillik mavjudligini; ichki va tashqi siyosat shaxs va jamiyat manfaatlari doirasida mustaqil o'tkazilishini ko'zda tutadi; millat va u tashkil etgan davlat institutlari tomonidan davlat tuzilmalari masalalarini mustaqil hal etish imkoniyati ta'minlanadi.

2. Harbiy xavfsizlik –urush imkoniyati kam bo'ladi, chunki taraflardan hech birida boshqa tarafga nisbatan harbiy harakat boshlashga sabab bo'lmaydi, davlat mudofaa qobiliyati va davlatlararo munosabatning holati keskinlashadi.

3. Axborot xavfsizligi – shaxs , jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini u yoki bu sohada (axborot qamali, axborot intervensiyasi, axborot urushi, dezinformatsiya va boshqalar) atayin yoki bexosdan qilingan ta'sirlardan himoyalashdir.

4. Ekologik xavfsizlik –inson yashash muhitining iqtisodiy ko'rsatkichlari umuman, biosferani, atmosfera holati, gidrosfera, lektosfera, o'simlik va hayvonot dunyosining turlar tarkibini, shuningdek, insonning turli faoliyati natijasida qayta tiklash mumkin bo'lmagan tabiiy resurslar yo'q bo'lib ketishi xavfining oldini olish.

5. Ijtimoiy –iqtisodiy xavfsizlik – jamiyat a'zolarini har qanday jismoniy va axloqiy kuch ishlatishdan, siyosiy va g'oyaviy zo'ravonlik, ijtimoiy va milliy kelishmovchilikdan himoyalash, subyektlarning ijtimoiy, siyosiy manfaatlarini , siyosiy, ijtimoiy va milliy mustaqilligini , ijtimoiy,

siyosiy aloqalar va kommunikatsiyalarni chegaralash xavfi va boshqalar.

6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashni asosiy ustuvor yo`nalishlari milliy manfaatlar, real va potensial xavflarga bog`liq ravishda aniqlanadi va o`z ichiga quyidagilarni oladi:

- bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, uning murosasozligini oshirishga, real mulkdorlar sinfini shakllantirishga yo`naltirilgan iqtisodiy islohotlarni ketma-ket o`tkazish;

- xususiy tadbirkorlik, kichik va o`rta biznes rivojlanishini rag`batlantirish;

- mulkdorlarning huquqlari va xususiy mulkni himoyalash, iqtisodiy faoliyat erkinligini ta`minlashning amaliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirish;

- barqaror va dinamik iqtisodiy o`sinh asosida insonlarning munosib hayot sharoitlarini tashkil etish;

- investitsion faoliyatni faollashtirish, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning zamonaviy ishlab chiqarilishini tashkil etish hisobiga mamlakat iqtisodiy mustaqilligiga erishish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o`zgartirishlarni amalga oshirish;

- makroiqtisodiy barqarorlik, moliya, pul-kredit tizimlari barqarorligini ta`minlash, milliy valyutani kuchaytirish;

- agrar sektorda radikal o`zgartirishlarni amalga oshirish, qishloqda bozor mexanizmini rivojlantirish, dehqonlarda xo`jayinlik hissini uyg`otish;

- tabiiy, xom ashyo, iqtisodiy va ilmiy- texnika potensialini oqilona ishlatish, mamlakat regionlarini majmuaviy rivojlantirish;

- iqtisodiyotning favqulodda holatlarda barqaror ishlashini ta`minlash;

- tashqi iqtisodiy integratsiyani faollashtirish, xorijiy kapitalni keng kiritish, eksport potensialini rivojlantirish, mahsulot eksporti va importi tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Jahon xo'jaligidagi xatarlar mexiyati va turlari.

Sugurta - bu yuridik va jismoniy u yoki bu xatardan (baxtsiz xodisalar).

Ular okibatlarini bir tomondan - sugurtadan ikkinchi tomonga -sugurtalovchiga ma'lum mukofot evaziga utkazish yuli bilan ta'minlashning uziga xos tizimidir. Sugurtaning iqtisodiy mexiyati sugurtalanganlarga yetkazilgan zarar tulanadigan va sugurtachilarning kup sonli vznoslari evaziga shakllanadigan markazlashgan sugurta jamgarmasini yaratishdadir. Uzbekiston iqtisodi bozor sharoitida xususiy lashtirish va chet el sarmoyalarining yuksalish boskichini boshdan kechirmokda. Bu narsa sugurta maksulotlari va kursatiladigan xizmatlar darajasiga yangi talablar kuyyadigan sugurtaning yangi mijozlarini paydo bulishiga olib keldi. Bozor tizimi uzgardi va sugurta kompaniyalari bu uzgarishlarni xisobga olib yangi imkoniyatlarni uz foydasiga ishlatmokda. Sugurta summasi va sugurta tulovini tulash tizimini mukammallashtirishni rivojlantirishning muxim omilidir. Xozirgi vakt da axoli korxonalar, muassasalar, ijtimoiy tashkilotlarning xar kil sugurta kurinishlari yetkazib berishga yunaltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chikilgan, Mamlakat moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun kasbdoshlar orasida tajriba almashish va umumiy masala va vazifalarni mukokama qiladigan Uzbekiston sugurtalari klubi mutaxassislar birlashmasi tashkil etilgan, Uzbekiston sugurtachilari Assotsiatsiyasini yaratish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmokda.

Islokotlarni amalga oshirish uchun chet el sarmoyalarini ximoya kilish uchun muxim kadamlar kuyildi. Shu bilan bir vakt da sugurtachilar ularning aktivlari yetarliligi chet el sarmoyadorlari uchun kafolat bulib xizmat kiladigan umumdavlat kapitalining tuldirish manbalaridan biri bulishi mumkin deb xisoblaydilar.

Sugurta kompaniyalari bu moliyaviy idoralar va sugurtachilarning erkin vositalarini kuyilishi bulib mamlakat olib borayotgan siyosatni kuchaytiruvchi sifatida ancha foydali bulishi mumkin.

Sugurta bozorida yangi sugurtachilarning paydo bulishi, jamiyat va tadbirkorlarda sugurta tugrisidagi bilimlarning yukligi sugurtada katnashuvchi tomonlarni olingan majburiyatlarni vijdonsizlarcha bajarilishidan ximoya bilan ta'minlanishiga zarurat tugdirdi.

Ta'kidlash joizki sugurtachilar- bu Davlat tartibiga olishning ma'lum muolajasini utadigan maxsus moliyaviy tashkilotdir. Ammo bunday tashkilot Uzbekiston Respublikasi territoriyasida sugurta faoliyatini tartibga solish bilan shugullanuvchi va sugurtachi kompaniyalar faoliyati ustidan nazorat kiluvchi davlat jamiyati organi - Uzbekiston davlat sugurta lit senziyasi - maxsus ruxsatnoma olgandan sung bevosita sugurtachilik faoliyati bilan shukullanishi mumkin.

Kupgina Uzbekiston fukorlari uchun "sugurta" kup yillar davomida Davlat sugurta bilan boglik sugurta shartnomasi va tulangan sugurta tulovi va sugurta tulovini "bildirar" - umuman ixtisosligi va yetarli darajada murakkab iktisodiy munosabatlar soxasini bildirar edi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda sodir bulgan vokealar bizning iktisod, moliya, pulga, sugurtaga, ya'ni bozor munosabatlariga uzgartirdi. Xozirgi vaktida sugurta xar bir oila, xar bir xujalik, tadbirkor, korxonona va butun davlat uchun katta axamiyatga egadir.

Mulkka ega bulish farovonlikdan tashkari mulkning tasodifiy xalokati yoki tasodifiy zarari va egalik xukuklarini yukotish xavfi xamdir.

Xususiy tadbirkorlikning usishi bilan vujudga kelgan sugurta soxasidagi zamonaviy sharoit va uzgarishlar sugurta kompaniyalariga xam, sugurta faoliyatini nazorat kiluvchi davlat organlariga xam yukori talablar kuymoksa. Bu sugurta faoliyati xususiyati, kisman sugurta xizmati iste'molchisi amaldagi konunchshshkdan xam sugurtaning xususiyatlaridan xam xabardor bulmagan

fukaroligi bilan boglikdir. Bundan tashkari sugurta xavfini baxolash, sugurta xodisasining bulish extimoli, sugurtachining moliyaviy majburiyatlarini xisob-kitobi kabi sugurta xususiyatlari maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik va ish tajribasini talab kiladi.

Sugurta kompaniyalari sugurta bozorining asosiy kismini tashkil etadi. Sugurta bozori sugurta xizmatiga talabni ifoda etuvchi sugurtachilar, bu talabni kondiruvchi sugurta kompaniyalari (sugurtachilar). Sugurta vositachilari va sugurta infrakurilmasi tashkilotlari xarakat kiladigan iktisodiy kenglikdir.

Bozor sharoitida sugurta kompaniyalari faoliyati kuyidagilarga

- sugurta iktisodiga;
- sugurta va moliyaviy matematikaga;
- xukuk soxasida sugurta xukukiga uziga xom xukuk sifatiga.

Uzbekiston eksport-import sugurtasi millii kompaniyasi Uzbekiston Respublikasi konunchilik aktlari va xozirgi koidalar, asosida sugurtachilik faoliyatini amalga oshiradi va sugurta shartnomalarida sugurtachi sifatida ish olib boradi.

“Uzbekinvest” EISMK si yuridik shaxs bulgan tashkilot, korxonona va mulkchilikning barcha kurinishi muassasalari bilan ishchilarni ishlab chikarishda baxtsiz xodisaladan sugurtalash shartnomalarini tuzadi.

Sugurta kilish sugurta kilingan shaxs foydasiga sugurta kiluvchi xisobidan sugurta mukofoti (vznosi) tulash bilan amalga oshiriladi.

EISMK “Uzbekinvest”ning sugurta ob’ektlari sugurta kilingan shaxsning foydaning kamayishi umumiy ishga layokatni yukotish bilan boglik kushimcha xarajatlar yoki sugurta kilingan shaxsiy ishdagi baxtsiz xodisalar okibatida ulishi kabi material manfaatidir.

“Uzbekisnvet” EISMK ishchilarni jamoali sugurta kilish koidalariga sugurta shartnomasi amalda bulgan vaktida sodir bulgan kuyidagi xodisalar tan olinishi ajratilgan:

- a) sugurta kilingan shaxs mexnat kilish kobiliyatini baxtsiz xodisa, tasodifiy

kattik zaxarlanish va boshka sugurta kilingan shaxs sogligiga tegishli xollarda umumiy mexnat kilish kobilyatini doimiy (butunlay yoki kisman) sugurta shartnomasi amal kilish muddatida yukotsa;

b) umumiy mexnat kilish kobilyatini sinish, chikish, mushaklarning butunlay uzilishi, tukimalar uzilishi, ichki organlar shikastlanishi va boshka baxtsiz xodisalar okibatidagi tananing boshka shikastlanishlari;

v) nafas olish yullariga begona jinlar kirishi, chukish okibatidan ulim.

Inson sogligiga zarar yoki kalofat yetkazgan aybdor tomon bu ish uchun javobgar buladi va jabrlanuvchi tomonga pul tulovi tulashi shart. Ta'kidlash kerakki keltirilgan zararning mikyosi yoki xarakteriga karab tulov summalari aybdorni sindiradigan darajada katta bulishi mumkin.

Polis egasi uz majburiyatlarini sugurta kilishga karor kilsa, kelib tushgan da'vosini ma'lum yillik mukofot evaziga sugurta kompaniyasiga utkazishi mumkin, u esa uz navbatida tulovlar tulashning barcha da'volar buyicha tulovini amalga oshiradi.

Sugurta kompaniyasining ishonchliligini belgilashda moliyaviy balans xujjatlari muxim omil bulishi mumkin. Fakat balansgina mijozga "Uzbekinvest" kompaniyasi javobgarlikning kerakli xajmini kabul kilish uchun yetarli kapitalga egaligiga mijozni ishontirishi mumkin. Balans kabul kilingan va kabul kilish rejalashtirilgan xavfni koplash uchun yetarli rezervlar borligini isbot kila oladi. Moliyaviy xujjatlar yordamida kompaniya uz kapitallarini sarmoyalashda xisob-kitobliligini isbot kiladi.

Xulosa

Jahon xo'jaligining shakllanishi jarayoni amalda kishilik jamiyatining jami tarixini o'z ichiga oladi, chunki jahon xo'jaligi ishlab chiqarish kuchlarining ming yillar davomidagi evolyutsiyasining natijasidir. Shu nuqtai nazardan jahon xo'jaligi tarixiy kategoriyadir. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalanuvchi ayrim bosqichlarga taqsimlash mumkin. Birinchi va eng uzoq davrni o'z ichiga olgan jahon xo'jaligi belgilari, xususiyatlari shakllana boshlagan boshqa bosqich buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha davom etgan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro savdo Yevropa va Osiyodan keyin Yer sharining regionlari va qit'alarini ham qamrab oldi. Qit'alar, regionlar o'rtasida mahsulotlarni ayirboshlash jahon bozorini vujudga keltirdi. Ushbu bozor transport, ayniqsa, dengiz transporti rivojlanishi munosabati bilan yana ham kengaydi, chunki dengiz transporti barcha materiklarni birlashtirishga imkon berdi. Jahon xo'jaligi XX asr arafasida to'la-to'kis shakllanib bo'ldi, hamda ushbu asrning birinchi yarmida uning rivojlanishi ayrim hududlarni qamrab olish hisobiga amalga oshdi. XX asrning ikkinchi yarmida esa jahon xo'jaligining rivojlanishi tarkibining takomillashtirilishini ta'minladi.

Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro geografik mehnat taqsimotining o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Geografik mehnat taqsimoti – bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Geografik mehnat taqsimoti miqyosiga ko'ra hududiy va xalqaro mehnat taqsimotiga bo'linadi. Geografik mehnat taqsimotining asosida tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar yotadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti ayrim tarixiy davrlarda har xil ko'rsatkichlar va xususiyatlar bilan ifodalanadi. Geografik mehnat taqsimotining asosiy natijalari qatorida mehant unumdorligining o'sishi, iqtisodiy rayonlarning shakllanishi va ixtisoslashuvi alohida o'rin egallaydi.

Test

- 1.** Davlatning turli xil xavflari va yo`qotishlariga qarshi turish qobiliyati nima deyiladi?
 - a. Xavfsizlik
 - b. Erkinlik
 - c. Jamiyat
- 2.** Xorijiy bozorlarga chiqishiga, xalqaro moliya iqtisodiy va savdo tartiblash mexanizmlarida ishtirokiga , yangi texnologiyalarga erishishdagi muammolar qanday xavflar sirasiga kiradi?
 - a. Tashqi
 - b. Ichki
 - c. Global
- 3.** Yuridik yoki jismoniy shaxslarning turli xavf- xatarlardan himoya qilinishi nima deb yuritiladi?
 - a. Sug`urta
 - b. Himoya
 - c. Huquqlari
- 4.** O`zbekistondagi eng yirik sugurta kompaniyasi?
 - a. O`zbekinvest
 - b. Alskom
 - c. O`zagrosug`urta
- 5.** Nyu York, Vashingtonda uyushtirilgan terroristik aktlar qachon bo`lgan?
 - a. 2011-yil
 - b. 2012-yil
 - c. 2013-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I. A. O`zbekiston XXI bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.— T.: “O`zbekiston”, 1997.
2. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom, —T.: “O`zbekiston”, 2002.
3. I.A.Karimov “ jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari “. T. “O`zbekiston”. 2009 y.
4. Ota-Mirzaev O.B., Qayumov A.A. Ijtimoiy geografiya : kecha, bugun, ertaga. “Istiqlol va geografiya”, O`zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyati IV s`ezdi materiallari. T.: 1995.
5. To`xliiev N. O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T.: 1998.
6. O`zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
7. www.uzrailve.uz
8. www.O'zA.uz